

UDK. 635.21: 631.52: 631.51: 631.55

ASOSIY MUDDATDA YETISHTIRILGAN KARTOSHKA NAV VA NAMUNALARINING HOSILDORLIGINI BAHOLASH

*Q.x.f.f.d., dotsent Begimkulov Ilxom Baxtiyorovich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali,
Samarqand. O'zbekiston.*

**E-mail.ru: ilkhombegimkulov0@gmail.com*

Annotatsiya: Respublika aholisini yil davomida kartoshka va undan tayyorlanadigan mahsulotlar bilan ta'minlab turish uchun ekindan yuqori va sifatli hosil olish bilan birga har bir tuproq-iqlim zonasi uchun ekiladigan navlarni to'g'ri tanlash katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: nav, seleksion namuna, hosildorlik, hosil strukturasi, biokimyoviy tarkib, tuganak, qayta ishlash.

Abstract: In order to provide the population of the republic with potatoes and products made from them throughout the year, it is important to choose the right varieties for each soil and climate zone, as well as to get a high and high-quality harvest from the crop.

Key words: variety, selection sample, productivity, harvest structure, biochemical composition, tuber, processing.

Kirish. O'zbekiston tuproq-iqlim sharoiti uchun kartoshka navlari tezpisharlik, hosildorlik, bir yilda ikki hosil olishga yaroqlilik talablariga javob berishi talab etiladi. Bundan tashqari, keyingi yillarda kartoshka tuganaklarini qayta ishlash, jumladan chips tayyorlash maqsadida ekin seleksiyasi oldiga mahsulotni qayta ishlash talablariga mos kartoshka navlarini yaratish va mavjudlaridan foydalanish masalasi qo'yilgan. Shuning uchun ham muayyan tuproq-iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda hamda ekindan olinadigan hosildan foydalanish yo'nalishiga qarab navlarni tanlash lozim. Chunki, mazkur dissertatsiyaning adabiyotlar sharhida keltirib o'tilganidek, qayta ishlashga yaroqli bo'lishi uchun navlar tuganaklarining biokimyoviy tarkibi, masalan undagi quruq modda, kraxmal, qand moddasi va boshqa mahsulot sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar bo'yicha ham tuganaklar talabga javob berishi talab etiladi.

Material va metodlar. Dala hamda laboratoriya tajribalari sinovlari qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlarini Davlat nav sinash komissiyasi [2], Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti [1] olimlari tomonidan ishlab chiqilgan "Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi" asosida o'tkazildi.

Tajribalarimiz obyekt bo'lib, respublikamiz sharoitida yaratilgan, seleksiya jarayonida baholanayotgan namunalarda va chetdan keltirilib katta maydonlarda ekib kelinayotgan kartoshka navlari xizmat qildi.

Dissertatsiyaning ushbu bobida kartoshka navlarining bahorgi va yozda yangi kovlab olingan tunganaklari bilan qayta ekilganda o'sishi, rivojlanishi, mahsuldorligi, hosildorligi, hosil strukturasi, tunganaklarning biokimyoviy tarkibi, undan tayyorlangan chips sifati ko'rsatkichlarini o'rganish bo'yicha 2018-2020 yillarda olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalarida bayon qilingan.

Ma'lumki, biologik jihatdan kartoshka mo'tadil iqlim ekini bo'lib, 29⁰C dan yuqori havo harorati o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikamiz tuproq-iqlim xususiyatlari esa yozning issiq va quruq sharoiti bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham bunday sharoitlar uchun mos navlarni tanlash va o'simliklar o'suv davrini havoning issiq davrigacha tugallash yoki asosiy hosilni to'plab olishiga qaratilgan ekinni yetishtirishning samarali texnologiyasini qo'llash kartoshkadan yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlaydi. Shunday muhim tashkiliy tadbirlardan biri kartoshkani bahorgi va yozgi muddatlarda ekish hisoblanadi. Bunday tadbirlar esa o'z navbatida har bir navning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borishni talab etadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida biz tadqiqotlarimizda obyekt bo'lib xizmat qilgan kartoshka navlarining hosildorligi va mahsulot sifatini har ikki muddatda yetishtirilgan kartoshka navlarida baholadik. Dissertatsiyaning adabiyotlar sharhi qismida kartoshka navlarining yozda yangi kovlab olingan tunganaklari bilan qayta ekilganda o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi to'g'risida mualliflar tomonidan olingan natijalarga asoslanib navlarning bunday usulda yetishtirishga mosligini baholashga oid natijalar keltirilgan edi. Tadqiqotlarimizda, har bir muayyan sharoit uchun va mahsulotni foydalanish yo'nalishini hisobga olgan holda nav tanlashning samaradorligini oshirish maqsadida o'rganilgan kartoshka navlari hosildorligini bahorgi muddatda yetishtirilgan dalalarda ham aniqlashni lozim deb topdik [3].

Tajribalarimizda seleksion navlarning hosildorligini aniqlash uchun har bir delyanka hosili alohida yig'ishtirib olindi va gektar hisobiga aniqlandi. Bu har qanday seleksiya ishining muhim bosqichi va muhim yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Chunki, har qanday navning yuqori hosil bera olish imkoniyati uning muhim biologik xususiyatlaridan biridir. Shuning uchun ham navlarning potentsial imkoniyatlari uning hosildorligi bilan bevosita bog'liq [4].

O'rganilgan navlar va seleksion namunalarning hosildorlik xususiyatlarini aniqlash natijalarini ko'rsatishicha, bahorgi muddatda yetishtirilganda eng yuqori hosil Feruza (34,0 t/ga), Romano (32,0 t/ga) va Bahro-32 navlaridan (32,4 t/ga) olindi. O'rganilgan nav va namunalarda orasidan eng past hosildorlik 18a raqamli seleksion

namunasida kuzatildi. Uning hosildorligi o'rtacha 24,6 t/ga ni tashkil etdi. Tajribalarimizda standart sifatida xizmat qilgan Sante navida hosildorlik gektaridan o'rtacha 26,3 tonnani tashkil qildi.

Xulosa. Tadqiqotlardan olingan natijalarga asoslanib, o'rganilgan navlardan Surxon-1, Romano, Feruza, Bahro-30 va Quvonch-16/56m navlari bahorgi muddatda yetishtirilganda yuqori va tovarbop kartoshka tuganaklari hosilini olish imkonini berishi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2002. -181-185 b.
2. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestri. Toshkent 2021 y.
3. www.potatotubers.com
4. www.tubersquality.com